

KORXONANI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Obidov Rasuljon Abdulxayevich

TKTI Yangiyer filiali

“Umumiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası o`qituvchisi,

Jumanova Humora Pardaboy qizi-

TKTI Yangiyer filiali, Menejment yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Albatta bu maqolada korxonaning boshqaruv tizimining kuzatishimiz mumkin. Bu yerda boshqaruv, boshqaruv tizimi, boshqaruv ob`yektlari va sub`yektlari to`g`risida ma`lumotlar berilib utilgan. Yana olib boriladigan faoliyat korxonalar, ularning boshqaruv faoliyati, boshqaruv munosabati va boshqaruv tamoyillari bo`yicha tusunchalar berilib utilgan.

Kalit so`zlari: Korxonona, tashkilot, boshqaruv, korxonaning boshqaruv tizimi, boshqaruv ob`yektlari, boshqaruv sub`yektlari, boshqaruv faoliyati, boshqaruv munosabati va boshqaruv tamoyillari.

Boshqaruv jamiyat munosabatlarining muhim ko`rsatkichi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga tegishlidir. U insonning jamiyatdagi mohiyati, mehnati taqsimoti, kooperatsiya va muomala zarurati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlardan kelib chiqadi.

Boshqaruv - ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining ob`ektiv qonunlari asosida yo`naltirilgan tarzda ta`sir o`tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o`zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir.

Boshqaruv tizimi deganda nimani tushunish lozim? Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo`lsak, uning tarkibiga kiruvchi ko`plab kichik tizimlarni

- tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko`rishimiz mumkin. Ularninghar birini ikki jihatidan: mustaqil faoliyat yuritish nuqtai nazaridan yoki butun birlikning tarkibiy qismi sifatida ko`rib chiqish mumkin. Masalan, korxonona (firma) mustaqil boshqaruv tizimi yoki tarmoqning (ishlab chiqarishning) bo`linmasi, bo`g`ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunga bog`liq bo`lgan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, uning vazifalari va funksiyalari shakllantiriladi. O`zaro aloqada va ma`lum jihatdan bir-biriga bo`ysinuvchi bo`lgan boshqaruv **ob`ektlari** va **sub`ektlari** faoliyatning alohida ko`rinishi sifatida boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi.

Korxononada boshqaruvning ta`siri **boshqaruv ob`ektiga** yo`naltirilgan bo`lib, ishlab chiqarish va xo`jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarni ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar **boshqaruv ob`ekti** bo`lishi mumkin. **Boshqaruv sub`ekti** esa qoidaga ko`ra, **korxonona rahbari** yoki boshqaruv ob`ektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi **xizmat**

rahbarlaridir. Agar yuqorida keltirilgan misolga qaytadigan bo'lsak, orkestr, bu – boshqaruv ob'ekti, dirijer esa, boshqaruv sub'ektidir.

Boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari doimo o'zaro aloqada bo'lib, bunda asosiy o'rin boshqaruv ob'ektiga, ya'ni boshqaruvchi tizimga ajratiladi. Boshqaruv ob'ektining mazmuni, unda yuz berayotgan o'zgarishlar boshqaruv sub'ekti vazifalari va harakatlarini belgilab beradi. Bu esa boshqaruv shakllari va usullarini mukammallashtirishda aks etadi.

Korxonaning *nima, qachon, qayerda, kimga ishlab chiqarish* bilan bog'liq bo'lgan siyosati, birinchi o'rinda boshqaruv sub'ekti tomonidan hal qilinadi. Shu sababli, boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Boshqaruv faoliyati - boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko'rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Boshqaruv faoliyati tarkibiga jamoatchilik tashkilotlaridagi faoliyat, ish joylarida ijodiy tashabbuskorlikning yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning taklif va maslahatlarini ham kiritish mumkin. Bu esa boshqaruv faoliyatini, **bevosita boshqaruv** (korxonada boshqaruv apparatining faoliyati) va **o'zini-o'zi boshqarish** (boshqaruv faoliyatining jamoatchilik shakli) turlariga ajratilgan holda tasniflash imkonini yaratadi. Faoliyatning ikkala turi ham amalda birgalikda yuritilib, ularning o'zaro aloqalari ishlab chiqarishni boshqarishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishning, jumladan, boshqaruv faoliyatining o'zining samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishning alohida elementlari va bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keluvchi **boshqaruv munosabatlari** muhim o'rin egallaydi.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tizimi birinchi o'rinda korxonaning barqarorligini ta'minlashi, xo'jalik tavakkalchiligini kamaytirishi, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga ko'maklashishi zarur. Shuningdek, u xodimlarning o'z mehnatlari natijasiga qiziqish darajasi ortishiga, mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

Korxonani boshqarishning samaradorligi, maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirishga qanchalik kam vaqt sarflansa, shunchalik yuqori bo'ladi. Bunga korxonada rahbari va boshqaruv funksiyalarini bajarishga mas'ul bo'lgan boshqa shaxslarning tajribasi va malakasidan tashqari, boshqaruv amaliyoti va ish tartibiga sarflanuvchi vaqtning qisqartirilishi, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishni oqilona tashkil qilish bo'yicha choratadbirlar majmuasini qo'llash hisobiga erishiladi.

Zamonaviy fan va menedjment amaliyoti korxonalarni boshqarishning quyidagi **tamoyillarini** eng asosiylari sifatida qabul qiladi:

1. Ilmiylik;
2. Tizimlilik va komplekslik;
3. Yakka boshqaruv va kollegiallik;
4. Tartib va adolat;
5. Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
6. Tejamkorlik va samaradorlik;
7. Tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat;
8. Vakolat va majburiyat.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalaridan tashqari, yangi korxonalarini tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham, yangi korxonalar yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Демченко З. А., Быковский Е. И. Экономическая эффективность предприятия: понятие, сущность, показатели, способы определения // Наука XXI века. – 2016. – 142–143 с.
2. Макконнелл, К. Р. Экономикс: принципы, проблемы и политика: пер. 17-го англ. изд. – М.: ИНФРА-М. – 2009. – 916 с.
3. Hududlarda Tadbirkorlik Tashabbuslarini Qollab-Quvvatlash Va Loyihalashtirish Istiqbollari. Obidov Rasul Abdulxayevich - PEDAGOGS jurnali, 2023
4. Государственная поддержка по повышению эффективности территориально-отраслевой кооперации в фермерских и дежканских хозяйствах Р.А. Обидов
5. Hududlarda Tadbirkorlikni Rivojlantirishning Dolzarb Masalalari, Obidov Rasul Abdulxayevich, PEDAGOGS jurnali 33 (2), 2023
6. System Of Clustering Of Universities In The Educational Market, Shoira Karshiboyeva Sindarkulovna - International journal of advanced research in education, 2023
7. Iqtisodiyotning Modernizatsiyalash Sharoitida Korxonalarda Foyda Tushunchasi, Karshiboyeva Shoira Sindarkulovna, DJ Bahodir ogli - ... of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2023
8. Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Korxonalarini Rivojlantirishda Innovatsion Marketingdan Foydalanish Yo'llari, Karshiboyeva Shoira Sindarkulovna - PEDAGOGS jurnali, 2023